

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYAGA OID QARASHLARI O'QUVCHILAR TARBIYASIDA ASOSIY MANBA

<https://doi.org/10.53885/edinres.2022.5.5.033>

*Xalilov Farhod Furqat o'g'li,
Andijon davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari to'langan, tahlil qilingan va o'quvchilar tarbiyasida tutgan o'rni asoslangan. Shuningdek bugungi kundagi ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun o'ziga xos taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, ijtimoiylashuv, muhid, oila sharoiti, ota-ona va bola munosabati.

Tarbiya - shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Qadimiy Turonzamin va Eronzaminidagi axloqiy tafakkur taraqqiyoti zardo'shtiylik dinining vujudga kelishi bilan bog'liq. Zardo'shtiylik ilohi Axuramazda – ezgulik, Axriman esa yovuzlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Zardo'shtiylik dinini ma'lum ma'noda axloqiy e'tiqod, uning muqaddas ki- tobi "Avesto"ni qadimgi ajdodlarimiz amal qilgan axloqiy tushunchalar va ko'rsatmalar majmui, deyish mumkin. Qadimgi Yunon allomalari Suqrot, Aflotun, Arastu ta'lim-tarbiya, axloqshunoslik borasida bir qator qarashlarni ilgari surgan. Arastu antik dunyo fuqarosining an'anaviy fazilatlarini bo'lmish donishmandlik, mardlik, odillik, do'stlikni yuksak qadrlaydi. Konfutsiy ta'limotida asosiy axloqiy qonun, asosiy axloqiy tushuncha – "jen" (insoniylik)dir. Masalan, "Lun yuy" (Hikmatlar) kitobida shunday deyiladi: "Kimki chin dildan insonni sevishga intilsa, u yovuzlik qilmaydi."10

Abu Nasr Forobiy Arastu izidan borib, falsafani ik- kiga: nazariy va amaliy jihatlariga ajratadi va axloqiy tarbiya - yani amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy muammolar uning "Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob "Fozil odamlar shahri"11 kabi asarlarida yoritilgan. Mutafakkirlar o'z asarlarida insonni yoshligidan aqliy va jismoniy jihatdan tarbiyalab, sabot-matонатli, ajdodlar an'anasiga bo'ysunadigan, axloqan pok, ezgu niyatli, barkamol bo'lishiga alohida e'tibor bergan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kishidagi ijobiy fazilatlar uni doimo kamolot sari yetaklashi, inson doimo o'z tarbiyasiga e'tiborli bo'lib yurishi zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, unda uyat-andisha, or - nomus, vatanparvarlik, xushmuomalalik, shirinso'z, kattaga hurmat, kichikka izzat, o'z-o'zini hurmat qilish, ochiq yuzlilik, aqlli va dono, bilimli, xulqi xush kabi – jami 17 ta fazilatlar yoritilgan. Jumladan, uning:

Birisi shoshilmoq, biri-ko'zi och,
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.
To'rtinchi – yovuzlik, buzuq fe'llilik,
Oxirgisi – yolg'on, qo'pol tillilik.
Bulardan tubani yomon fe'l erur,
Yomon fe'l kishiga alamlar berur.
Ochiq yuz, shirin so'z, mayinlik kerak,

Fe'l-atvorda moslik, tayinlik kerak, degan misralarida xalqni g'iybatdan, yolg'ondan, tubanlik- dan, qo'pollikdan yiroq bo'lib, shirinso'z va chiroyli, mayin muomalada bo'lishlikka chorlaydi. Zero, bunday milliy fazilatlariga yondashgan insonning oilasi mustahkam, o'zi esa baxtli bo'ladi.

Agar Sharq adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, islomiy g'oyalar negizidagi axloqqa oid dastlabki asarlar pandnoma, hikmatlar ko'rinishida yaratilganining guvohi bo'lamiz. Bu, albatta, islomiy adabiyot olamida inson tarbiyasi masalasi qadimdan katta ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Chunki pandnoma va hikmatlarda ko'tariladigan asosiy g'oyalar shaxsning ma'naviy va jismoniy kamoloti masalalaridir.

Buyuk ajdodlarimizdan Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Hakim at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlar o'zlarining beqiyos ma'rifatlari bilan umuminsoniy madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishgan. Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy ma'rifatni ilm, amal, odob bilan o'zaro bog'liq xislatlar deb hisoblaganlar. Ularning fikriga ko'ra, kishining odobi, xulqi uning ma'rifati, bilimdonligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson qanchalik ma'rifatli bo'lsa, uning xulqi shunchalik yaxshi va mukammal bo'ladi.

Biz farzand tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi. Abu Nasr Forobiyning: "Inson o'z baxtiga erishishda go'zallikni ko'rishi va his qilishining o'zi yetarli emas, buning uchun go'zallikni yarata olishi muhimdir", – degan fikrlarida olam-olam ma'no bor. Mutafakkirning bu fikrida bugungi ota-onalarimiz o'zlari namuna bo'lgan holda oilalarida, ishlarida, ro'zg'orlarida, uy tutishlarida, o'zaro munosabatlarida, yurish-turishlarida, kiyinishlarida, salomatliklarida, farzand tarbiyasida, ular bilan bo'ladigan muomalada go'zallikni yarata olishlari zarur, degan g'oya o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz ham o'zlarini namuna bo'lgan holda o'z farzandlariga pandu nasihatlar qilganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy: "Har inson kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i, yaxshi xulq-atvorga, fazilatlariga ega bo'lmog'i kerak", — degan ekan. Arab hikmatlarining birida: "Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi ha-yotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilish. Inson ikki narsaning qadrini faqat yo'qotgandagina biladi: biri yoshlik, biri sog'liq", — deb ta'kidlangani bejiz emas. Darhaqiqat, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala va munosabatda bo'ladi hamda o'sha jamiyatdagi insonlarning axloqi, tarbiyasi ko'zgusida yashaydi, unga ko'nikib ketadi. Jamiyatda xushmuomala, tarbiyali, aqlli, tashabbuskor, faol insonlarni hamma yaxshi ko'radi. Mutafakkirlarimizning tarbiya, ilm, fanga oid qarashlarini quyida keltirishdan maqsad, ular farzand tarbiyasida unumli foydalanishda o'z bo'lsa-da, yordam beradi, deb umid qilamiz.

Abu Nasr Forobiy (873-950) ilmning turli sohalariga oid katta ilmiy meros qoldirdi. M.Xayrullayev o'zining "Forobiy va uning falsafiy asarlari" monografiyasida Forobiyning 119 ta asari ro'yxatini keltiradi. O'z davri- ning zukko, ilmli mutafakkiri Forobiy 70 dan ortiq tilni mukammal bilgan va ko'pgina tillardagi eng muhim asarlarni aslyatda mutolaa qilgan. 15 Agar Aristotel Sharqda "Mualimim avval" degan unvon olgan bo'lsa, Forobiy Aristotel asarlarini targ'ib qilgani va uning qarashlarini yanada rivojlantirgani, Aristotel kabi universal ilmga ega bo'lgani uchun "Muallim sony" 16 ("Ikkinchi muallim") degan nom olgan. Forobiy ijtimoiy-siyosiy masalalarga

bag'ishlangan "Fozil shahar aholilarining fikrlari", "Baxt-saodatga erishuv haqida risola", "Baxt-saodatga erishuv yo'llari" kabi asarlarni yozgan. Forobiy fazilatli shaharda ilm, falsafa, axloq, ma'rifatning ahamiyati birinchi o'rinda bo'lmog'i ke rak, shundagina jamiyat yetuklikka erishadi, deya ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritish, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir, 17 shuningdek, bilim-ma'rifat, albatta, yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim,

— degan so'zlari zamirida oilada, ta'lim muassasalarida far-zandlarga nafaqat bilim, balki tarbiya ham zarurligi ilgari surilgan. Zero, dono xalqimiz "Bola – odobi bilan go'zal", deb bejiz aytmagan.

Abu Homid G'azzoliy o'zining "Ihyou ulumid-din" kito- bida to'rtta katta mavzuni jamlagan:

a) ibodatlar haqidagi qism, b) urf-odatlar haqidagi qism, v) halok qiluvchi va g) najot beruvchi narsalar haqidagi qism- lar. Har bir qism o'ntadan, jami qirqta kitobni o'z ichiga olgan. Ta'kidlash joiz, Abu Homid G'azzoliy biror mavzu- ni yoritar ekan, islomiy odob va an'anaga ko'ra, dastlab unga tegishli oyatlarni keltiradi, so'ngra Payg'ambarimizning hadislariga murojaat etadi, keyin esa sahobalar va boshqa ulug'larning so'zlaridan, siyratlaridan dalillar keltiradi, shundan so'ng fikr-mulohazalarini bayon etadi, lozim o'rin- larda so'zlarini hujjat bilan quvvatlaydi. 18 Biz Abu Homid G'azzoliyning "Ihyou ulumid-din" asarining "Muhliqot" (ha- lokatga olib boruvchi ofatlar) qismini, ya'ni "Til ofat- lari"ni tanladik. Ushbu kitobda muomala odobi, yuksak axloqiy intizom masalalari oyat, hadis asosida sahobalar- ning so'zlari, ibratomuz rivoyatlar orqali yoritilgan. Biz qisqa bo'lsa-da, til, til ofatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, tilning faoliyat va ta'sir doirasiga chek yo'q: yaxshilik sari yursa, oldida keng maydon, ufqlar qadar cho'zilgan, yomonlik yo'liga kirsam, ilon-chayonlar kabi sudralib, tubsiz tubanlikka ketishi mumkin ekani beixtiyor, har birimizni avval o'ylab, keyin so'ylashga chorlaydi.

Abu Bakr ibn Iyosh hikoya qiladi: "To'rtta shoh – Hind, Chin, Eron va Rum podshohlari bir joyga jamlandi. Biri

edi: "Aytmaganlarimga emas, aytgan so'zlarimga pushaymon- man". Yana biri aytdi: "Qachonki bitta so'z gapirgan bo'lsam, u so'z mening xo'jayinimga aylandi, men unga tobe. Gapirma- gan so'zimga esa men xo'jayin bo'ldim, u menga tobe". Uchinchisi dedi: "Gapirgan gapi o'ziga qaytarilsa, zarar beradigan, agar qaytarilmasa, foyda bermaydigan gapiruvchiga ajablana- man?!" To'rtinchisi dedi: "Aytganlarimdan ko'ra, aytmaganla- rimni rad qilish menga osonroq".

Abu Zar deydi: "Rasululloh sallollohu alayhi vasallam menga shunday dedilar: Badaningga yengil, mezonda og'ir amalni senga o'rgataymi?"

Ha, albatta, ey Ollohning rasuli, — dedim.

Bu amal – jim yurish, go'zal xulq va behuda gaplardan tiyilishdir, — dedilar.

Ibn Mas'ud aytdi: "Sizlarni ortiqcha gapdan ogohlanti- raman! Kishiga ehtiyoj darajasidagi gap kifoyadir".

Mujohid dedi: "Albatta, so'zlar yozib boriladi. Hatto kishi o'g'lini tinchitish uchun: "Senga falon-falon narsalar sotib olaman," – desa, uni "kazzob" deb yozib qo'yiladi.

Mutafakkir Abu Homid G'azzoliy qarashlaridagi go'zal xulq, muomala, so'zlashda aql va zakovat bilan o'ylab gapirish, yolg'on gapirishdan yiroq bo'lish ilgari surilgan. Mutafak- kirning bu fikrlarini yoshlar ongiga singdirish va tarbiya- lash orqali oilalardagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash, turli kelishmovchiliklar, nizolarni oldini olish mumkin. Chunki yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og'izdan

chiqishi hech kimga sir emas. Shunday ekan, kelinglar, oilada farzandlar- ga, yaqinlarga muloyim, shirinso‘z, chiroyli muomalada bo‘lib, imkon qadar namuna bo‘lishga harakat qilaylik.

Tarbiyani keng ma‘noda tushungan Avloniy uni birgina axloq tarbiyasi bilan chegaralab qo‘ymaydi. U, avvalo, bolaning sog‘lig‘i haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligiga e‘tibor qarata- di. Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm- ma‘- rifatga ega bo‘lish uchun, avvalo, tan salomatligi zarur. Avlo- niy fikricha, «badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgat- moq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur».

Abdulla Avloniy bolaning badantarbiyasi, salomatligi masalasida ota-onalarga murojaat qilsa, uning fikr tarbiya- si borasida asosiy mas‘uliyat muallimlar zimmasida ekani- ga urg‘u beradi. Bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish, dunyoqarashini shakllantirish muallimlarning «diqqatla- riga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas vazifadur... Negaki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur», – deydi alloma. Shu bilan birga, mu- tafakkir Abdulla Avloniy: “Ta‘lim va tarbiya uzviy bog‘- liq jarayonlardur, dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”, — deya ta‘- kidlaydi. Avloniy insonga yaxshilik va ezgulik faqat ilm egallash orqali singadi, degan qat‘iy fikrni bildiradi. Ilmli, ezgu g‘oya ruhida tarbiyalangan kishidagina Vatan tuy- g‘usi shakllanadi, ona yurti va ona tiliga muhabbat uyg‘onadi, sadoqati qaror topadi. Bu fazilatlersiz komil insonni ta- savvur etib bo‘lmaydi, degan fikrlarni ilgari suradi.

Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma‘- naviy va jismoniy kamolotiga bog‘liqdir. Shu bois Abdul- la Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, Avloniy ilmsizni jaho- lat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: “Jaholat deb o‘qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydur- gan nodonlikni aytilur”, – deydi. “Ilm sahroda – do‘st, hayot yo‘llarida – tayanch. Yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madakkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – qurol- dir”²². Mutafakkir: “Go‘zallik yuzda ermas, ey birodar, so‘zi shirin kishi har kimga yoqar”, “So‘zing oz bo‘lsinu, ma‘noli bo‘lsun, eshitganlar qulog‘i durga to‘lsun,” — deb insonlarni xushsuxan bo‘lishga chorlaydiki, toki so‘zlarimiz farzandla- rimiz uchun namuna bo‘lsin.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Mutafakkirning 154 ta asari nomlari ma‘lum. Ulardan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Ma‘sud qonuni”, “Astronomiya va yulduzlar to‘g‘risida”, “Minerologiya” va boshqa asarla- ri bizgacha yetib kelgan. Mutafakkir o‘z asarlarida falsa- fiy-axloqiy qarashlar bilan bir qatorda xalqlar o‘rtasida do‘stlik va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Beruniy- ning fikricha, kishilar uchun dunyoda turli holatlar bor. Bu mahmud (maqtaluvchi), yaxshilik va yomonlikdir. “Maqtanarli (yaxshi) hollarning (markazi) muruvvat (mardlik-erlik) bo‘- lib, muruvvatning tayanchi poklik va tozalikdir”, – deydi.

Beruniyning fikricha, kishi axloqiy mukamallikka eri- sha olishi uchun o‘z xulqi va odatlaridagi nuqsонlarni to- zalab, o‘zini tarbiyalab, axloqan davolashi zarur, deydi. Be- runiy xalqlar o‘rtasida do‘stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida oila va nikoh munosabatlarini yoritadi. Mutafakkir oila va nikoh munosabatlarining nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilar ekan, oilaning mu- stahkam va tinch-totuv bo‘lishi, er-xotinning ahilligi, shi- rinso‘zligi, bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatiga bog‘liq, degan fikrni ilgari suradi.

Beruniy yoshlarga qarata shunday dey

buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi biz- ni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka, adolatga va mehr-oqibatga chaqiradi. Albat- ta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, tarixini, o'ziga xos urf-odat va an'analarini milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Sharq olimlarining, jumladan, Ibn Sinoning hikmat- lari, Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoyinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qu- tadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Abu Rayhon Beru- niyning hikmatlari, Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" kabi asarlarida bola tarbiyasiga bo'lgan e'tibor o'z aksini topgan. Qayd etilgan asarlardan farzand ota-onaning baxti bo'lsa, tarbiya farzandning buguni, er- tasi va kelajagidir, degan umumiy xulosaga kelish mumkin. Shuning uchun ham tarbiya – ijtimoiy hodisa. Tarbiya kishi- lik jamiyati paydo bo'lgan davrlardan beri mavjud. Negaki, inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, u tarbiyalanishi zarur. Xalqimiz orasidagi "Tarbiyachi, avva- lo, o'zi tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak", degan naql bekorga ay- tilmagan. Mutafakkir Ibn Sino tarbiya beruvchilarga qara- ta, "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil", – deydi.

Farzand tarbiyasida, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va boyitishda, mutafakkirlarning fikr-mulohazalari, pand-nasihatlari, hikmatlaridan foydalanish va barkamol insonni voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Adabiyotlar

1. Сафарова Р. Г. Педагогическое сотрудничество как фактор развития и стимулирования творческого мышления учащихся // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2013. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskoe-sotrudnichestvo-kak-faktor-razvitiya-i-stimulirovaniya-tvorcheskogo-myshleniya-uchaschihsya> (дата обращения: 08.05.2022).

2. Сафарова Рохат Гайбиллаевна Пути и факторы оптимизации содержания общего среднего образования на современном этапе // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-i-factory-optimizatsii-soderzhaniya-obshchego-srednego-obrazovaniya-na-sovremenном-etape> (дата обращения: 08.05.2022).

3. Сафарова Рохат Гайбуллаевна). Теория и практика обучения родному языку в школах Узбекистана в условиях национального возрождения. <https://elibrary.ru/item.asp?id=30225376>

4. Сафарова Р. Г. Бошланғич синф дарсликларини яратишнинг ўзига хос жиҳатлари. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=eN8GPmgAAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=eN8GPmgAAAAJ:70eg2SAEIsC

5. Safarova Rokhat G. Ways and factors of optimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-of-optimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world> (дата обращения: 09.05.2022).